

**SAN'ATGA E'TIBOR-MILLATGA E'TIBOR**

*Xalniyazova Ra'no Quvonichboy qizi*

*O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filiali 2-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Kamalova Gulmayram.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda san'at va madaniyatga e'tibor, yoshlarning dunyo qarashini, ma'naviy dunyosini shakillantirish muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu vazifalarni hal qilish uchun imkoniyatlardan foydalanishimiz kerak bo'ladi. Ya'ni hozirgi kunda mamlakatimizda har bir soha qatorda madaniyat va san'at saholariga ham davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Hozir ana shu sohada amalga oshirilayotgan ishlar yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Musiqa, san'at, madaniyat, musiqa maktablari, musiqa cholg'ulari, mutaxassislar,

**Аннотация:** В данной статье внимание к искусству и культуре, формированию мировоззрения и духовного мира молодежи является одной из важных задач. Нам придется использовать возможности для решения этих задач. Иными словами, в нашей стране сфере культуры и искусства уделяется внимание на уровне государственной политики. В настоящее время будет освещена работа, проводимая в этой области.

**Ключевые слова:** Музыка, искусство, культура, музыкальные школы, музыкальные инструменты, профессионалы,

**Annotation:** In this article, attention to art and culture, shaping the worldview and spiritual world of young people is one of the important tasks. We will have to use opportunities to solve these tasks. In other words, in our country, attention is being paid to the spheres of culture and art at the level of state policy. Currently, the work being carried out in this field will be highlighted.

**Keywords:** Music, art, culture, music schools, musical instruments, professionals,

Barchamizga ma'lumki, kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Ajdodlardan me'ros milliy musiqa va tasviriy san'atni asrab avaylash va yanada rivojlantirish, bugungi kunda bolalar musiqa va san'at matablarida tahsil olayotgan o'quvchilar, ularga ta'lim berayotgan o'qituvchilar zimmasiga ma'sulyat yuklangan desak adashmaymiz. Ana shunday mas'uliyatli va sharafli vazifani amalga oshirish uchun mustaqillikka erishganimizdan so'ng barcha sohalar qatori musiqa va san'at maktablari ham davlatimiz tomonidan yuksak e'tibor qaratildi.

Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan 2008-yilda Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi qabul qilindi. Dastur doirasida o'tgan yillar davomida bolalar musiqa va san'at maktablarini barpo etish uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bu ta'lim muassaslarida zamonaviy, xalqaro talablarga javob beradigan shart-sharoitlar yaratilmoqda. Qolaversa, musiqa va san'atga ixtisoslashgan akademik litseylar, shuningdek, sohadagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga ham katta e'tibor qaratildi. Dastur keng qamrovli bo'lib, yangi zamonaviy maktab binolarini bunyod etish, ularni milliy va zamonaviy musiqa cholg'ulari bilan ta'minlash, yangi o'quv dasturlar, darsliklar, adabiyotlar bilan taminlash hamda o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni moddiy rag'batlantirish, maktablarni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash kabi oliy maqsadlarni qo'ygan.

Keyinchalik bu sohaga e'tibor yanada kuchaydi deb aytishimiz mumkin. Prezidentimiz tashabbusi bilan bolalar musiqa maktablari haqida nizomni tasdiqladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016 — 2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida" 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bolalar musiqa va san'at maktablarini musiqa asboblari, maxsus mebellar, asbob-uskunalar va boshqa anjomlar bilan jihozlansin, musiqa va san'at yo'nalishlarida ta'lim berishning ilg'or xorijiy tajribasini hisobga olgan holda takomillashtirilgan o'quv rejasi tasdiqlanishini ta'minlasin kabi vazifalar yuklatildi. Musiqa va san'at maktablarini bunyod etish niyatining ulug'ligi bois, Davlat dasturi qabul qilingandan buyon mamlakatimizda musiqa va san'at maktablariga qatnayotgan balalar soni ming-minglab nafarga ko'paydi. Shular orasida Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani 3-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi ham eng oldi musiqa maktablardan biri hisoblanadi.

To'rtko'l tumani 3-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi 1976 yil o'z zamonasining yangi tipdagi binosi qurib ishga tushirildi. Maktabda "Ta'lim to'g'risida"gi Nizomda nazarda tutilgan bir qator ishlar olib borilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 8 iyuldagi PQ-910-sonli "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini tubdan yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori asosida To'rtko'l tumani 3-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi 2009 yil qayta rekonstruksiya qilingan. Hozirgi kunda maktabning ichki va tashqi bezatilishi zamonaviy talablarga javob beradi. Maktab To'rtko'l tuman Nukus ko'chasi № 30 uyda joylashgan, imorat II-tip 1 qavatli 150 o'ringa mo'ljallangan. Obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgan. Maktab binosi, foesi, o'quv xonalari talab

darajasida. O'quvchilar uchun mo'ljallangan musiqa asboblari, o'quv qurollari, jihozlar belgilangan tartibda tekshiruvdan o'tkazilgan. Jihozlardan sinf xonalarda samarali foydalanib kelinmoqda, asosan barcha jihozlar sinf xonalariga berilgan.

Maktabda musiqa va san'at yo'nalishlari bo'yicha quyidagicha ta'lim olib kelmoqdalar. Hozirgi kunda 12 yo'nalish (fortepiano, torli cholg'ular, estrada ijrochiligi, xalq cholg'ulari, estrada xonandalik, damli va zarbli cholg'ular, an'anaviy xonandalik, baxshichilik, an'anaviy cholg'u ijrochiligi, xoreografiya, tasviriy san'at, xalq amaliy san'ati,) 18 mutaxassislik (fortepiano, estrada-fortepiano, skripka, qashqar rubobi, prima rubobi, dutor, doira, akkordeon, g'ijjak, an'anaviy xonandalik, an'anaviy ijrochilik, baxshichilik, estrada xonandaligi, marimba, xoreografiya, tasviriy san'at, zardo'zlik, kashtachilik.) bo'yicha o'qituvchilar musiqa va san'at sirlarini o'rgatishmoqda.

2021 yil 17-mart kuni Nukus shahrida bo'lib o'tgan M.Qori Yaqubov nomidagi respublika ko'rik-tanlovi Qoraqalpog'iston Respublika bochqichida baxshichilik yo'nalishi bo'yicha Amatov Azizbek 3-o'rinni egalladi. 26-mart kuni esa Nukus shahrida bo'lib o'tgan, Bolalar musiqa va san'at maktablari orkestr, ansambl va ijodiy jamolarning respublika ko'rik-tanlovi Qoraqalpog'iston Respublika bochqichida "Milliy qo'shiqlar ansambli" yo'nalishi bo'yicha qatnashib 3-o'rinni egallashdi.

Bundan tashqari jahon miqyosida o'tkazilgan turli ko'rik-tanlovlarga maktabimiz o'quvchilari qatnashib juda katta yutuqlarga erishdi. Shulardan "Iste'dodlar kamalagi" xalqaro tanlovi, Xalqaro ijodiy tanlov "Obro' e'tibor", "Iste'dodlar namoyishi" xalqaro tanlov, "Rossiya iste'dodlari" xalqaro tanlovlaridir.

2021 yil 18-may kuni Ellikqal'a tumani "Jaloliddin Manguberdi" nomli madaniyat va istirohat bog'ida "Sen qudrat manbai, saodat maskani jonajon O'zbekiston" shiori ostida tasviriy san'at o'quvchilarining festivali tumanlararo bosqichi bo'lib o'tdi. Bunda bizning o'quvchilarimiz faol qatnashib Raximov Jamshid faxrli 1-o'rinni, Olimov Zafarbek 2-o'rinni hamda Qurbonboev Zayniddin 3 o'rinni egallashdi. 21-iyun kuni 3-sonli bolalar musiqa maktabida "Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivali tuman bosqichi bo'lib o'tdi. Maktabimiz o'quvchilari faol qatnashib faxrli o'rinlarni olib, Nukus shahriga yo'llanma olishdi. Shu yilning 7 – oktabr sanasida Nukus shahrida Bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari orasida san'at yo'nalishi bo'yicha ko'rik tanlovda- tasviriy san'at sinfi o'quvchisi Raximbaev Jamshid qatnashib, 3 - o'rinni egalladi. 8-noyabr kuni tumanda "Vatan taraqqiyotiga mening hissam" shiori ostida tanlov bo'lib o'tdi. Tanlovda "Tasviriy va amaliy san'at" yo'nalishi bo'yicha tasviriy san'at sinfi o'quvchisi Raximbaev Jamshid 1-o'rinni egalladi. 2021-yil rahbariyat umuman olganda maktab uchun eng yaxshi hamda omadli yil bo'ldi desak aashmaymiz.

2022 yil 7-fevral kuni Bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarining yosh ijrochilari orasida "Akademik va estrada ijrochiligi" respublika ko'rik-

tanlovining 1-bosqichi bo'lib o'tdi. Maktabimizning iqtidorli o'quvchilari faol qatnashib respublika bosqichiga yo'llanma olishdi.

2022 yil 11-aprel kuni To'rtko'l tuman 3-son bolalar musiqa va san'at maktabida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'chimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarori 2-ilovasi 1-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida "San'atim sanga obod yurtim" ijodiy ko'rik tanlovining tuman bosqichi bo'lib o'tdi. Ko'rik tanlovda maktabimiz o'quvchisi Amatov Azizbek faxrli 1-o'rinni egallab, Nukus shahrida o'tkaziladigan Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichiga yo'llanma oldi. Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida faol ishtirok etib faxrli 2-o'rinni egalladi.

2022 yil 11-aprel kuni To'rtko'l tuman 3-son bolalar musiqa va san'at maktabida "Yoshlar ovozi" tanlovining sektorlar bosqichi bo'lib o'tdi. Tanlov yo'nalishlari bo'yicha 1-o'rinni egallagan g'oliblar tegishli hakamlar hayati yig'ilish bayoni asosida keyingi bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritishdi.

2022 yil 22-aprel kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida "San'atim sanga obod yurtim" "Baxshichilik" deb nomlangan ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi. Ko'rik tanlovda, Baxshichilik yo'nalishi bo'yicha, To'rtko'l tumani 3-son BMSM An'anaviy xonandalik sinfi o'quvchisi Amatov Azizbek faxrli 2-o'rinni egalladi. 23-aprel kuni esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida Bolalar musiqa va san'at maktablari orkestr, ansambl va ijodiy jamolarining respublika ko'rik-tanlovida To'rtko'l tuman 3-son bolalar musiqa va san'at maktabining "Xalq cholg'u ansambli" jamoasi faxri 3-o'rinni egalladi.

Shu yilning 30-aprel kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida musiqa va san'at maktablari yosh ijrochilari o'rtasida "Akademik va estrada ijrochiligi" respublika ko'rik-tanlovining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Ushbu tanlovning tumanlar aro o'tkazilgan bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritib, Respublikaga yo'llanma olgan 3-son bolalar musiqa va san'at maktabining yosh ijrochilari Nukus shahrida joylashgan 1-son BMSM da bo'lib o'tgan Respublika bosqichida ham faol qatnashib, faxrli o'rinlarni egalladilar. Jumladan "Akkordeon" yo'nalishida Quromboev Alisher 3-o'rinni, "Skripka Alt" yo'nalishida Sultonboev Datonbek 3-o'rinni, "Skripka" yo'nalishida Qurbanbaev Jamshidbek 2-o'rinni, "Saksafon" yo'nalishida Zaripov Shuxratbek 2-o'rinni, "estrada-Fortepiano" yo'nalishida Sultanboeva Shodiya 3-o'rinni, "Zarbli cholg'ular" yo'nalishida Sadullaev Javlonbek 2-o'rinni, Saparbaev Xaydarbek 3-o'rinni egalladilar.

Bu yil 2023-2024 o'qish yilida jami o'quvchi kontingenti – 222 nafarni tashkil qiladi. Bu o'quvchilarga 32 nafar o'qituvchilar davlat talablari asosida ta'lim berib kelishmoqda. 32 nafar o'qituvchidan 15 nafari oliy ma'lumotli, 9 nafari to'liqsiz oliy ma'lumotli, 8 nafari o'rta mahsus ma'lumotli.

**Paydalanilgan ádebiyatlar:**

1. Charshemov J. Problems of Using Karakalpak Folklore in Composers //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – С. 270-273.
2. Charshemov J. A REVIEW OF MARKABAY JIEMURATOV'S WORK //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – С. 818-821.
3. Niyazbaeva A., Kamalova G. ÓZBEKISTON XALQ BAXSHISI QALLIEV TENELBAY GENJEBAEVICH IJODI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 22-24.
4. Begis P., Kamalova G. M. SÓNBES JULDIZ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 55-59.
5. Aysawle J., Kamalova G. M. SAHRA BÚLBÚLI ROZA QUTEKEEVA //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 60-66.
6. Dauletbaeva G., Kamalova G. A SHINING STAR //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 880-884.
7. Segizbaeva G., Kamalova G. M. DEVELOPMENT OF THE ORCHESTRA OF MUSICAL INSTRUMENTS IN KARAKALPAKSTAN //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 875-879.
8. Niyazbaeva A. J., Kamalova G. M. CHANQOVUZ MUSIQA ASBOBI VA UNING TURLARI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 26-30.
9. Kamalova G. M. et al. QARAQALPAQTIN' BAY MIYRASI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 52-54.
10. Kamalova G. M., Akhmetovna M. A. QOBIZ HÁM JIRAWSHILIQ DÁSTÚRLERIN SAQLAW //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 9. – №. 1. – С. 123-126.
11. Kamalova G., Akhmetovna M. A. THE LEGACY THAT HAS COME DOWN TO US AS “JETI ASIRIM” //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 9. – №. 1. – С. 117-122.
12. Kamalova G. M. et al. ÓZBEKSTAN XALIQ BAQSISI GAYRATDIN ÓTEMURATOV //TADQIQOTLAR. – 2023. – Т. 25. – №. 1. – С. 40-42.
13. Kamalova G. M. et al. ÓZBEK MUZIKASINDA BALALAR FOLKLORI //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 39. – №. 2. – С. 85-87.